

# TABIY-ILMIY KOLLEKSIYALARNI BOSHQARISH HAMDA EKSPOZITSION TALQIN ETISHNING INSTITUTSIONAL TRANSFORMATSIYASI



**Qoraboyev Usmon Hosilovich**

Falsafa fanlari doktori, professor

**Sayidova Nilufar Bahodir qizi**

Milliy rassomlik va dizayn instituti tayanch doktoranti.

ORCID 0009-0006-6561-8647

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20019661>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tabiiy-ilmiy muzey ashyolarini boshqarish va ularni ekspozitsion talqin etish jarayonlari Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi tarkibidagi tabiat bo'limi kolleksiyalari misolida tahlil qilindi. O'tkazilgan tadqiqot doirasida muzeydagi dastlabki kolleksiyalarning shakllanishi, inventarizatsiya jarayoni, saqlash, ilmiy tavsiflash hamda namoyish etish bosqichlari o'zaro bog'liqligi misollar orqali ochib berildi. Xususan tabiiy ashyolarni zamonaviy muzeyshunoslik yondashuvlari asosida talqin etishning ilmiy, ma'rifiy va madaniy ahamiyati yoritildi.

**Kalit so'zlar.** Muzey, kolleksiya, fond, tabiiy-ilmiy kolleksiyalar, ekspozitsiya, zoologik, botanik, geologik namunalar, inventarizatsiya, taksidermiya.

**Аннотация.** В данной статье проанализированы процессы управления и экспозиционной интерпретации естественно-научных музейных предметов на примере коллекций отдела природы Бухарского государственного музея-заповедника. В рамках проведённого исследования раскрыта взаимосвязь этапов формирования первоначальных коллекций, инвентаризации, хранения, научного описания и экспонирования музейных предметов на основе конкретных примеров. Особое внимание уделено научному, просветительскому и культурному значению интерпретации природных объектов с использованием современных подходов музееведения.

**Ключевые слова:** музей, коллекция, фонд, естественно-научные коллекции, экспозиция, зоологические, ботанические, геологические образцы, инвентаризация, таксидермия.

**Abstract.** This article analyzes the processes of management and exhibition interpretation of natural science museum objects, using the example of the collections of the nature department of the Bukhara State Museum-Reserve. Within the framework of the study, the formation of the initial collections, the process of inventory, storage, scientific description, and exhibition stages in the museum are examined in their interrelation through specific examples. In particular, the scientific, educational, and cultural significance of interpreting natural specimens based on modern museological approaches is highlighted.

**Keywords:** museum, collection, фонд (fund/holdings), natural science collections, exhibition, zoological, botanical, geological specimens, inventory, taxidermy.

Zamonaviy dunyoda muzeylar faoliyati tahlil qilinganda, ular faqat tarixiy va tabiiy ashyolarni saqlash bilan cheklanib qolmay, balki ularni ilmiy asosda tahlil qilish, keng

jamoatchilikka innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tushunarli shaklda namoyish qilish bilan bir qatorda madaniy - ma'rifiy kommunikatsiya maydoniga aylantirish bilan izohlanadi. Xususan, muzey kolleksiyalari ichida tabiiy-ilmiy kolleksiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ular hududning geologik, zoologik, botanik va tabiiy-tarixiy xususiyatlarini o'zida mujassam qilgan noyob ilmiy manbadir. Ularni boshqarish, saqlash, tizimlashtirish va namoyish qilish masalalari muzeyshunoslikning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Muzey kolleksiyalarini boshqarish jarayoni murakkab bo'lib, dastlab fondlarni shakllantirish, ularni ro'yxatga olish, klassifikatsiya qilish, konservatsiya, ilmiy tavsiflash hamda ekspozitsiyaga tayyorlash kabi bosqichlarni qamrab oladi. Jarayon samadorligi bevosita muzeyning institutsional salohiyati ya'ni tashkiliy tuzilmasi, ilmiy kadrlar ta'minoti, me'yoriy uslubiy bazasi, texnik imkoniyatlari va boshqaruv yo'nalishlariga bog'liqdir. Yurtimizdagi uchta yirik shaharlarda muzey qo'riqxonalar tashkil qilingan bo'lib, ularning har birida tabiat bo'limlari faoliyat yuritib kelmoqda. Ularning ichida Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi fondi o'zining noyob ilmiy kolleksiyalari, biologik xilma-xilligi, tabiiy-tarixiy xususiyatlari bilan ajralib turadigan madaniy maskandir. Arxiv hujjatlariga tayangan holda, Buxoroda dastlabki muzey 1922-yil 8-noyabrda ochilgan bo'lsa, ammo muzey ochilishi uchun harakat ancha avval boshlangan. Sababi o'lkaning ilmiy ekspeditsiyalar natijasida yig'ilgan ko'plab asori-atiqalarni boshqa o'lkalarga chiqib ketishiga yo'l qo'ymaslik bo'lgan. Muzey faoliyati 1924-yilga kelib, bir muddat to'xtatilgan bo'lsa ham 1927 - yilga kelib qayta tashkil qilinadi.<sup>1</sup> XX asrning 30-yillarigacha bo'lgan davr oralig'ida muzey ashyolari unchalik ko'p bo'lmagan va ular yildan-yilga sekin astalik bilan ko'paya borgan. Bu borada muzeyda faoliyat yuritgan ko'plab ilmiy xodimlarning roli ham katta bo'lgan. Buning uchun muzey tomonidan maxsus ekspeditsiyalar tashkil qilingan, shuningdek, ilmiy-yig'uv, xarid, hadya qilish hisobiga ham muzey kolleksiyalari to'ldirib borilgan. Mazkur jarayon muzey faoliyatining muhim ilmiy-boshqaruv bosqichlaridan biri hisoblanadi. Xususan, muzey kolleksiyalari tizimli ravishda klassifikatsiya qilinib, ularning tarkibi ilmiy mezonlar asosida qayta ko'rib chiqildi. Shu jarayonda tabiatga oid ashyolar alohida ajratilib ularning har biri batafsil o'rganildi, tavsiflandi va qayta ro'yxatga olindi. Qayta ro'yxatga olish jarayonida eksponatlarning kelib chiqishi, biologik, geologik, ekologik xususiyatlari, saqlanish holati hamda ilmiy ahamiyati aniqlashtirildi. Natijada tabiatga oid kolleksiyalarni yanada mukammal o'rganish va namoyish etish maqsadida muzey tarkibida 1947-yilda maxsus "Tabiat bo'limi" tashkil qilindi. Ushbu bo'lim muzeyning ilmiy-tadqiqot, ma'rifiy va ekspozitsion faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilib, tabiiy merosni tizimli ravishda saqlash, o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazish imkonini yaratadi.

Tabiat bo'limining hozirgi ekspozitsiyasi 2009-yilning 12-yanvarida ochilgan bo'lib, Buxoro hukmdorlarining qishki saroyi bo'lmish "Ark" dagi qushbegi (bosh vazir) hovlisida joylashgan. Bo'lim ekspozitsiyasi umumiy maydoni 300m<sup>2</sup> tashkil qilib, Buxoro viloyatining fizik-geografik xususiyatlari, geologiyasi, Buxoro zaminining yer osti boyliklari, iqlim sharoitlari, suv sistemasi, ekologiyasi, noyob flora va fauna dunyosini o'zida namoyon qilgan jami 6 ta zalda joylashgan 12 ta tematik bo'limlardan iborat.<sup>2</sup> Ular quyidagilar:

- Buxoro viloyatining fizik-geografik tavsifnomasi;
- Tabiatning tosh xronikasi (paleontologik toshlar);
- Foydali qazilmalar va zilzila;

---

<sup>1</sup> Ш.Жўраев «Бухоро музейининг кутубхонаси. тарихи, коллекцияси ва таҳлил» INFOLIB jurnali. 2024/2-129

<sup>2</sup> Buxoro muzey qo'riqxonasi Tabiat bo'limining yillik hisobotlari.

- Iqlim. Suv resurslari. Ekologiya va inson;
- Buxoro vohasi tuprog‘i. O‘simliklar dunyosi, dorivor giyohlar;
- Buxoroning hayvonot dunyosi. Qo‘riqxonalar, davlat buyurtma maskanlari, tabiat yodgorliklari;

“Buxoro viloyatining fizik-geografik tavsifnomasi” bo‘limining asosiy eksponati, “Buxoro viloyatining fizik xaritasi” maketi (1.80-2.20m) hisoblanadi. Unda Buxoro viloyatining relyefi, chegaralari, viloyat, tumanlari chegaralari aniq va ravshan ko‘rsatilgan bo‘lib, butun ekspozitsiyaning kaliti hisoblanadi. Ekspozitsiyaning “Tabiatning tosh xronikasi” bo‘limida muzeyga tashrif buyuruvchilar Yerning geologik tarixi, Buxoro vohasining geologic tuzulishi, va

u bilan bog‘liq bo‘lgan muhim ma‘lumotlarga ega bo‘lishadi. Xususan, geologik Era va davrlarning ketma-ketligi va davomiyligi ko‘rsatilgan geoxronologik jadval diqqatni tortadi. Bundan tashqari viloyat hududida yashagan, toshga aylangan qadimgi dunyo o‘simlik va hayvonot dunyosining qoldiqlarini o‘zida jamlagan eksponatlar ham mavjud. Polebotanik kolleksiyalar ham ekspozitsiyada yetakchi o‘rinni egallaydi. Paleobotanik kolleksiyalar — qadimgi geologik davrlarda yashagan o‘simliklarning qoldiqlari (fossilari) asosida



*1-rasm. Seysmograf*

shakllantirilgan ilmiy majmua bo‘lib, ular bir qator muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Avvalo, paleobotanik kolleksiyalar Yer tarixidagi o‘simliklar dunyosining evolyutsiyasini o‘rganishda asosiy manba hisoblanadi. Xususiyatlari hamda ularning o‘zgarish qonuniyatlari aniqlanadi. Bu esa evolyutsion jarayonlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Ushbu kolleksiyalar yordamida turli geologik davrlarda mavjud bo‘lgan flora tarkibi, o‘simliklarning morfologik va anatomik evolyutsiyasini o‘rganish hamda tadqiq qilish mumkin. Bundan tashqari, paleobotanik materiallar geologik qatlamlarning yoshini aniqlashda, ya‘ni stratigrafik tadqiqotlarda ham keng qo‘llaniladi. Ayrim o‘simlik turlari ma‘lum geologik davrga xos bo‘lgani sababli, ular orqali qatlamlarning nisbiy yoshi aniqlanadi. Amaliy jihatdan esa, bu kolleksiyalar foydali qazilmalarni, xususan, ko‘mir, neft va gaz konlarini izlashda yordam beradi, chunki ularning hosil bo‘lishi ko‘pincha qadimgi o‘simlik qoldiqlari bilan bevosita bog‘liq. Nihoyat, paleobotanik kolleksiyalar muzeylarning ilmiy-ma‘rifiy faoliyatida ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular orqali keng jamoatchilikka Yer tarixining uzoq o‘tmishi, o‘simliklar evolyutsiyasi va tabiiy meros haqida bilim beriladi. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirayotgan ko‘plab tadqiqotchilar ushbu kolleksiyalarni bevosita o‘rganish orqali ularni ilmiy muomalaga kiritish, ya‘ni yangi ilmiy natijalar olish, mavjud bilimlarni boyitish va tegishli sohalarga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Keyingi “Foydali qazilmalar va zilzila” bo‘limi o‘lkadagi barcha foydali qazilmalar: grafit, gips, oxra, surik, ohaktosh, neft kabi qazilma turlari bilan tanishtiradi. Buxorodagi neftni qayta ishlash zavodining maketi, gaz va neft qazib olinadigan joylar tavsifi haqida ekspozitsiyada kengroq ma‘lumotlar berilgan. Ushbu bo‘limning eng noyob eksponatlardan biri bu “Seysmograf” dir.(1-rasm) Ushbu asbob yer silkinishini aniqlab beradi. Ekspozitsiyaga qo‘yilgan asbob bilan 1976 hamda 1982-yillarda Gazli hududida sodir bo‘lgan zilzila o‘lchangan. Voqeaning fototasvirlari “Buxoro viloyatidagi zilzilalar” mavzusini yoritib beradi. “Iqlim. Suv resurslari. Ekologiya va inson” nomli bo‘limda “Dengizko‘l ko‘li” dioramasi

viloyatimizning qushlar dunyosi xilma-xilligini ko'rsatib beradi. Keyingi bo'limda esa, vohaning tuproq namunalari, dehqonchilik mahsulotlari, o'simliklar dunyosi hamda dorivor giyohlar namoyishga qo'yilgan. Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmoqlaridan paxtachilik hamda pillachilikka alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib, paxtaning Buxoro-6, Buxoro-8, Buxoro-9 kabi navlarning farqlari, hosildorlik darajasi haqida tomoshabinlarga batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu bo'limda Seleksiya sohasidagi so'nggi tajribalar, yutuqlar haqida bilishingiz mumkin. (2-rasm).

Eng katta va ko'p kolleksiyalarni o'zida mujassam qilgan "Buxoroning hayvonot dunyosi. Qo'riqxonona, davlat buyurtma maskanlari, tabiat yodgorliklari" bo'limidir. Ushbu bo'limda 5 ta diorama qilingan bo'lib, ular yordamida "Jayron" ekomarkazi, "Qizilqum" qo'riqxonasining to'qayzorlari" "Dengizko'l ko'li" kabi Buxoro zaminida mavjud bo'lgan noyob turfa xil hayvonot dunyosini, qo'riqxonona zonalari, ekologik markazlar haqida batafsil ma'lumot berilgan. (3-rasm)

Bugungi kunda Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi faoliyati nafaqat madaniy merosni saqlash, balki uni ilmiy jihatdan chuqur o'rganish va xalqaro ilmiy makonga integratsiya qilish bilan ham tavsiflanadi. Mazkur muassasa tomonidan yetakchi xalqaro tashkilotlar, ilmiy markazlar



**4-rasm. Talabalar tomonidan tayyorlangan namunalar**

hamda oliy ta'lim muassasalari bilan yo'lga qo'yilgan

institutsonal hamkorlik aloqalari ilmiy-tadqiqot jarayonlarining samaradorligini oshirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va

ilmiy bilimlar transferini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, muzeyning tabiat bo'limi tabiiy fanlar (biologiya, ekologiya, geologiya) yo'nalishiga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlikda ilmiy-amaliy faoliyat olib borilmoqda. Ushbu hamkorlik bevosita tabiiy kolleksiyalarni shakllantirishning konseptual asoslarini ishlab chiqish, ularning taksonomik identifikatsiyasini aniqlashtirish, biogeografik xususiyatlarini tizimli ravishda tahlil qilish, shuningdek, ilmiy pasportlashtirish va kataloglashtirish jarayonlarini takomillashtirishni qamrab oladi. Shular bilan bir qatorda kolleksiyalar bilan ishlashda zamonaviy konservatsiya va restavratsiya texnologiyalarini qo'llash, jumladan, namunalarning morfologik yaxlitligini saqlash, fizik-kimyoviy degradatsiya jarayonlarini soddalashtirish, biogen zararlanish omillarini bartaraf etish hamda mikroiklim parametrlarini ilmiy asosda boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buxoro davlat pedagogika institutining tabiiy fanlar fakulteti talabalari tomonidan muzeyda ko'plab amaliy mashg'ulotlar, master klasslar tashkil qilingan. Ular tomonidan tayyorlangan eksponatlar muzeyga hadya sifatida taqdim etilgan. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida talaba va yosh tadqiqotchilar laboratoriya sharoitida namunalarni rekonstruksiya qilish, stabilizatsiya qilish va uzoq muddatli saqlash strategiyalarini ishlab chiqish



**3-rasm. "Dengizko'l ko'li" dioraması.**



**2-rasm. Paxta navlari**

bo'yicha zarur kompetensiyalarni egallamoqda. Bundan tashqari, raqamlashtirish jarayonlari orqali kolleksiyalarni elektron bazalarga kiritish, geoinformatsion tizimlar bilan integratsiya qilish hamda ilmiy ma'lumotlarning ochiqligini ta'minlash yo'nalishida ham izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur yondashuvlar nafaqat muzey fondlarining ilmiy va amaliy qiymatini oshirish, balki zamonaviy ilm-fan talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.10.2008 yildagi 237-son qarori.
2. Muzeyshunoslik. O'quv qo'llanma. /O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashturuvchi-metdik markaz, 2018. – T.: Turon – Iqbol, 2018. – B. 260.
3. Ш.Жўраев «Бухоро музейининг кутубхонаси. тарихи, коллекцияси ва таҳлил» INFOLIB jurnali. 2024/2-129
4. Джураев Ш.Г. «Из истории Бухарского музея. Формирование коллекции. К 100-летию Бухарского государственного музея-заповедника» Музей, №10. 2022, -с.25
5. Вухоро музеу қо`ғиқхонаси Табиат бо`лимининг йиллик ҳисоботлари.